

RAQAMLI TEXNOLOGIYA USKUNALARINI MHXS ASOSIDA TAN OLISH MASALARI

Muxamadjonova Durdona Adashboy qizi
Fargʻona davlat texnika universiteti doktoranti

Annotatsiya. Mazkur ilmiy ishda Oʻzbekiston va xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlili asosida raqamli transformatsiya jarayonida vujudga keluvchi yangi turdagi raqamli texnologiya uskunalari buxgalteriya hisobida MHXS talablari doirasida aks ettirish metodologiyasi oʻrganiladi. Ishda milliy hisob standartlari bilan xalqaro moliyaviy hisobot meʼyorlari oʻrtasida mavjud nomuvofiqliklar tahlil qilinadi hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan amaliy yoʻnalishlar taklif etiladi.

Kalit soʻzlar: raqamli texnologiya uskunalari, BHXS-16, BHXS-38, milliy standartlar, tan olish, eskirish hisobi, hisobdan olib tashlash, raqamli oʻzgarishlar, moliyaviy axborot, meʼyorlar muvofiqligi.

Аннотация. В данной научной работе на основе анализа опыта Узбекистана и зарубежных стран изучается методология отражения в бухгалтерском учете новых видов оборудования цифровых технологий, возникающих в процессе цифровой трансформации, в рамках требований МСФО. В работе анализируются существующие несоответствия между национальными стандартами учета и международными стандартами финансовой отчетности, а также предлагаются практические направления их устранения.

Ключевые слова: оборудование цифровых технологий, МСФО 16, МСФО 38, национальные стандарты, признание, учет амортизации, списание с учета, цифровая трансформация, финансовая информация, соответствие стандартов.

Annotation. This scientific work examines the methodology for accounting recognition of new types of digital technology equipment emerging in the process of digital transformation within the framework of IFRS requirements, based on the analysis of experience from Uzbekistan and foreign countries. The work analyzes existing discrepancies between national accounting standards and international financial reporting standards and proposes practical directions for eliminating them.

Keywords: digital technology equipment, IAS 16, IAS 38, national standards, recognition, depreciation accounting, derecognition, digital transformation, financial information, standards compliance.

Kirish. Raqamli oʻzgarishlar davrida tadbirkorlik subyektlari yangi resurslar - elektron dasturiy taʼminot, raqamli litsenziyalar, internet-platformalar, tarmoq infratuzilmasi, serverli tizimlar, axborot saqlash qurilmalari hamda boshqa raqamli vositalar uchun salmoqli mablagʻlar ajratmoqdalar. Biroq, ushbu mulklarni hisobda toʻgʻri koʻrsatish, ularni eʼtirof etish, baholash, eskirish hisoblash va hisobdan chiqarib tashlash yoʻllarida hali ham hal etilmagan masalalar sifatida saqlanib

qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga (MHXS) bosqichma – bosqich o‘tish jarayoni davom etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevralda qabul qilingan PQ-4611-raqamli “Moliyaviy axborotning xalqaro standartlariga o‘tish yuzasidan qo‘shimcha tadbirlar haqida”gi Farmoyishi hamda 2023-yil 11-sentyabrda tasdiqlangan PF-158-raqamli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi bu jarayonni yanada jadallashtirishga xizmat qilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Raqamli texnologiya uskunalari buxgalteriya hisobida aks ettirish muammosi yaqin yillarda jahon olimlari diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Xalqaro tadqiqotlarda ushbu sohaga oid turli nazariy konsepsiyalar va amaliy instrumentlar taklif etilgan. Mavjud adabiyotlarni o‘rganish aktivlarni identifikatsiya qilish, qiymatini belgilash va moliyaviy hisobotda taqdim etish masalalariga asosiy e‘tibor qaratilganligini ko‘rsatadi.

Hendriksen bilan Van Bredaning fundamental tadqiqotlarida aktivni tan olishning uchta bazaviy sharti aniq belgilangan: birinchidan, tashkilot aktiv ustidan to‘liq nazoratga ega bo‘lishi zarur; ikkinchidan, kelajakda iqtisodiy manfaat olish ehtimoli mavjud bo‘lishi kerak; uchinchidan, aktivning qiymatini obyektiv o‘lchash imkoniyati bo‘lishi shart. Ularning xulosasiga ko‘ra, raqamli texnologiya uskunalari ushbu shartlarning barchasini qanoatlantiradi va shuning uchun asosiy vositalar kategoriyasida hisoblanishi lozim [1].

Mahalliy olimlarimizdan A.Maxmudov xalqaro standartlarni milliy sharoitlarga moslashtirish bo‘yicha muhim tadqiqotlar olib borgan. Uning ilmiy ishlarida standartlarni amaliy tatbiq etish mexanizmlari batafsil tahlil qilingan. Shu bilan birga, ushbu tadqiqotlarda raqamli texnologiya uskunalarining alohida xususiyatlari - xizmat ko‘rsatish kelishuvlaridan jihozlarni ajratish metodikasi, texnologiyaning tez eskirishi, balansdan tashqari monitoring kabi jihatlari yetarli darajada yoritilmagan[3].

Xalqaro standartlar kengashi tomonidan qabul qilingan BHXS 16 “Asosiy vositalar” va BHXS 38 “Nomoddiy aktivlar” standartlari raqamli texnologiya uskunalari hisobga olishning umumiy metodologik bazasini shakllantiradi. O‘rganilgan adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud ilmiy ishlar aktivlarni identifikatsiya qilish va baholashning fundamental jihatlarini yaxshi yoritgan. Ammo raqamli texnologiya uskunalari hisobga olishning amaliy metodikasi - qanday guruhlash kerak, qaysi analitik schotlarda yuritish lozim, qanday eskirish normalarini qo‘llash maqsadga muvofiq, xizmat ko‘rsatish kelishuvlaridan qanday ajratish mumkin kabi savollar hali to‘liq o‘rganilmagan[3][4].

Tadqiqot metodologiyasi. Raqamli texnologiya uskunalari buxgalteriya hisobida ko‘rsatish hamda MHXS va BHMS me‘yorlari o‘rtasidagi nomuvofiqliklarni bartaraf etish masalalarini tadqiq qilishda tizimli yondashuv, solishtirish, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, qiyosiy va tanlab o‘rganish hamda guruhlash metodlari qo‘llanilgan.

Tahlil va olingan natijalar. Raqamli texnologiya uskunalari – bu

korxonaning raqamli jarayonlarini ta'minlovchi texnik vositalar bo'lib, BHXS 16 "Asosiy vositalar" standartiga muvofiq hisobda aks ettiriladi (jadval).

Jadval

Raqamli texnologiya uskunalarining tasnifi

Raqamli aktiv turlari	Aktiv nomi	Xususiyati	Xizmat muddati	MHXS	O'zbekiston amaliyoti
Tarmoq uskunolari	Switch qurilmalari	Tarmoq ulagich	4-5 yil	16-MHXS	Aksariyat xarajatga
Server uskunolari	Server uskunolari	Axborot uzatish va ma'lumot saqlash	5-7 yil	16-MHXS	70% aktivlashtiriladi
Kompyuter texnikasi	Monoblok qurilmalari	Yagona tipdagi kompyuter	3-5 yil	16-MHXS	50% aktivlashtiriladi
	Portativ kompyuterlar	Noutbuklar	3-5 yil	16-MHXS	Aktivlashtiriladi
Avtomatlashtirish uskunolari	GPS tizimi	Joylashuvni aniqlash	4-5 yil	16-MHXS	Transport vositalari qiymatiga kiritiladi
	Raqamli tarozilar	Og'irlikni o'lchash	3-5 yil	16-MHXS	Ba'zida aktivlashtiriladi
	Shtrix kod skanerlari	Kod o'qish	3-5 yil	16-MHXS	Ba'zida aktivlashtiriladi
Xavfsizlik tizimi uskunolari	Face ID terminali	Yuzni aniqlash	4-5 yil	16-MHXS	Yangi obyekt, kam sonli korxonalarda mavjud
	Raqamli kameralar	IP kameralar	5-7 yil	16-MHXS	Aktivlashtiriladi
Vizual nazorat tizimi uskunolari	Aqlli monitorlar	Interaktiv ekran	5-7 yil	16-MHXS	Ba'zida aktivlashtiriladi

Jadval ma'lumotlarining umumiy tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston korxonalarida raqamli texnologiya uskunalarini hisobga olishda uchta asosiy muammo mavjud. Birinchi muammo - aktivlashtirish o'rniga xarajatga yozish: switch, router va shtrix-kod skanerlar ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri xarajatlarga yozilmoqda, natijada balansda ularning qiymati aks etmaydi. Ikkinchi muammo - noto'g'ri kategoriyaga kiritish: GPS qurilmalari transport qiymatiga, elektron tarozilar ishlab chiqarish uskunalariga, aqlli monitorlar oddiy monitorlar bilan aralashtirib yuborilmoqda. Uchinchi muammo - yangi texnologiyalar uchun aniq yo'riqnomalar yo'qligi: Face ID, aqlli monitorlar va boshqa ilg'or texnologiyalarni qanday tasniflash va hisobga olish bo'yicha yagona amaliyot hali shakllanmagan. Bu muammolarning iqtisodiy oqibatlarini jiddiy bo'lib, aktivlar qiymati balansda kam

ko'rsatilishi (haqiqiy qiymatdan taxminan 30-50%), moliyaviy ko'rsatkichlar (aktivlar rentabelligi, kapital aylanmasi) buzilishi natijasida xorijiy investorlar korxonaning haqiqiy qiymatini baholay olmaydilar va MHXS talablariga nomuvofiqliklar audit jarayonida shikoyatlarga olib keladi.

Tadqiqot doirasida Indorama Kokand Fertilizers and Chemicals AJ da raqamli texnologiya uskunalari tarkibiga kiruvchi GPS qurilmalari transport vositalari qiymatiga kiritilganligi aniqlandi. Raqamli texnologiya uskunalarning takomillashtirilgan tasnifiga ko'ra korxona hisob siyosatiga raqamli texnologiya uskunalari nomli yangi band qo'shib, unda raqamli texnologiyalarni buxgalteriya hisobida tan olish, baholash usullari, amortizatsiya hisoblash usullari va hisobda aks ettirish tartibi belgilandi. Shuningdek, BHXS 8 "Buxgalteriya hisobi siyosati, buxgalteriya baholanishlaridagi o'zgarishlar va xatolar" standartining 42-47-bandlariga muvofiq oldingi davrlar xatolari tuzatildi va qayta tasniflash yozuvlari amalga oshirildi:

GPS qurilmalarini raqamli texnologiya uskunalari sifatida qayta tasniflash bo'yicha buxgalteriya o'tkazmalari.

Dt. 0151 – Raqamli texnologiya uskunalari 28,800 ming

Kt. 0160 –Transportvositalari 28,800 ming

Avvalgi yillar uchun hisoblangan amortizatsiya jamg'armasini tuzatuvchi buxgalteriya o'tkazmasi (xizmat muddati 5 yil, to'g'ri chiziqli amortizatsiya usildan foydalaniladi).

Dt. 9425 – Raqamli texnologiyalar bo'yicha xarajatlar 17,280 ming

Kt. 0251 – Amortizatsiya jamg'armasi 17,280 ming

2025 – yilgi router amortizatsiyasi bo'yicha xarajatlarni aks ettirish bo'yicha quyidagicha buxgalteriya o'tkazmasi berildi.

Dt. 9425 – Raqamli texnologiyalar bo'yicha xarajatlar 5,760 ming

Kt. 0251 – Amortizatsiya jamg'armasi 5,760 ming

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, MHXSlariga moslashuv korxonalarda hisob siyosatini qayta ko'rib chiqishni va raqamli texnologiyalarni chuqurroq tadbiq etishni talab etmoqda. Bu nafaqat hisobot shakllarini xalqaro amaliyotga yaqinlashtirish, balki buxgalteriya hisob registrilarini va hisob uslublarini ham zamonaviy texnologik yechimlar yordamida xalqaro standartlarga transformatsiya qilishni anglatadi.

Xulosa. Milliy korxonalarda raqamli texnologiya uskunalari hisobga olish tizimi bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda. Ammo bu jarayonni maksimal samaradorlik bilan va xalqaro standartlarga to'liq muvofiq tarzda amalga oshirish uchun quyidagi ustuvor vazifalarni bajarish zarur:

1. Schyotlar arxitekturasini modernizatsiya qilish, korxonalarning ishchi schyotlar tizimiga 0151 – "Raqamli texnologiya uskunalari" va 0251 – "Raqamli texnologiya uskunalarning amortizatsiyasi" analitik schyotlarini kiritish;

2. Aktivlarni identifikatsiya qilish mezonlarini aniqlashtirish, BHXS 16 va BHXS 38 xalqaro standartlari asosida raqamli texnologiya uskunalari aktivlashtirish bo'yicha yo'riqnomalar tayyorlash;

3. Amortizatsiya hisoblash meyorlarini optimallashtirish, texnologiyaning yangilanish tezligini inobatga olgan holda har bir uskuna turi uchun individual foydalanish muddatlarini o'rnatish;

4. Moliyaviy hisobotlarda axborotni taqdim etishni standartlashtirish, xalqaro standartlar asosida raqamli texnologiya uskunalari bo'yicha maxsus izohlar qismini shakllantirish;

5. Professional kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish, buxgalterlar va auditorlar uchun raqamli texnologiya uskunalarini hisobga olish bo'yicha maxsus treninglar tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Hendriksen E. S., Van Breda M. F. Accounting Theory. – 5th ed. – Irwin, 1992.

2. Maxmudov A. MXXS: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021.

5. IAS 16 Property, Plant and Equipment / International Accounting Standards Board (IASB). – 2018. – URL: <https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ias-16-property-plant-and-equipment/>

6. IAS 38 Intangible Assets / International Accounting Standards Board (IASB). – 2018. – URL: <https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ias-38-intangible-assets/>